OSHQAZON OSTİ BEZİ SARATONİNİNG PATOMORFOLOGİK VA İMMUNOGİSTOKİMYOVİY YOSHGA BOG‘LİQ XUSUSİYATLARİ

Mutaxassislik: 14.00.15 - Patologik anatomiya.
Dissertatsiya ishining sohasi: Tabobat fanlari
Ilmiy rahbar: t.f.n. ***Matrasulov R.S.***
Konsultant: t.f.d., prof. ***Nishanov D.A.***
Tayanch doktorant: ***Mansurova K.M.***
Konsultant, t.f.d., prof.: ***Nishanov D.A.***
Ish bajarilgan tashkilot: Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Muammoning dolzarbligi

Dunyo aholisi orasida onkologik kasalliklar orasida o‘limga olib keluvchi patologiyalar ichida oshqozon osti bezi saratoni JSST (BSST) 2023 yildagi ma’lumotlariga ko‘ra, yuqori xavflilik darajasi bo‘yicha yetakchi 3-4 o‘rinlardan birini egallaydi. Ovqat hazm qilish tizimi xavfli o‘smalari ichida oshqozon osti bezi adenokartsinomasi eng yomon prognozga ega bo‘lib, jami onkologik o‘lim ko‘rsatkichlarining salmoqli qismini tashkil etadi. Asosiy kontingent JSST ning yosh bo‘yicha taklif etgan tasnifiga ko‘ra, 60-74 yoshli keksalar hamda so‘nggi yillarda kasallikning sezilarli darajada yosharishi kuzatilayotganligi sababli 45-59 yoshli mehnatga layoqatli aholi qatlami orasida ham yuqori ko‘rsatkichlar bilan belgilanmoqda.

JSST ning so‘nggi 2020-2024 yillardagi global tahlillariga ko‘ra, oshqozon osti bezi saratoni bilan kasallanish va undan o‘lim holatlarining yosh taqsimotida 18-44 yoshlilarda 5-8% ni, 45-59 yoshlilarda 30,2% ni, 60-74 yoshlilarda 45,6% ni va 75 yoshdan oshganlarda qolgan foiz oralig‘ini tashkil etishi qayd etilgan. G‘arb davlatlari (AQSh, Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi) va rivojlangan Osiyo mamlakatlarida (Janubiy Koreya, Yaponiya) ushbu patologiya ko‘proq 65 yoshdan oshgan aholi orasida diagnostika qilinayotgan bo‘lsa, Rossiya Federatsiyasi, MDH davlatlari va rivojlanayotgan mamlakatlarda (Hindiston, Pokiston, Lotin Amerikasi) noqulay ekologik omillar, nosog‘lom ovqatlanish, surunkali stress va haftalik ish yuklamasining 50-55 soatdan oshib ketishi natijasida kasallikning mehnatga layoqatli (45-59 yosh) yosh qatlamida uchrash darajasi keskin ortib bormoqda. Bu esa davlatning iqtisodiy-ijtimoiy tamoyillariga, mehnat resurslariga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Aynan oshqozon osti bezi saratonining rivojlanishida yoshga doir involyutiv va neyroendokrin o‘zgarishlar, bezning qon bilan ta’minlanishining pasayishi (ishemik omillar) va surunkali pankreatit fonida yuzaga keladigan patomorfologik xususiyatlari bo‘yicha dunyo olimlari orasida yagona ilmiy xulosalar mavjud emas. Ayniqsa,

bezdagi lokal mikromuhit, angiogenez faktorlari va o‘sma hujayralarining immunogistokimyoviy markerlari (masalan, Cytokeratins, CEA, Ki-67, p53 va CD34 boshqalar) ekspressiyasining yoshga bog‘liq ravishda qanday o‘zgarishi, ularning invaziya va metastazlanish jarayonlariga ta’siri to‘liq ochib berilmagan. Bu esa muammoning ilmiy va amaliy jihatdan nihoyatda dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Dissertatsiya mavzusining Respublika ilmiy-tadqiqot ishlarning asosiy yo‘nalishiga mosligi.

Reja qilinayotgan dissertatsiya ishi Respublika sog‘liqni saqlash tizimidagi ilmiy muammolarning fundamental va amaliy qismini hal qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, oshqozon osti bezi saratonida bezda yuzaga keladigan patomorfologik va immunogistokimyoviy o‘zgarishlarni yoshga, jinsga doir klinik va patomorfologik xususiyatlarini o‘rganish hamda ushbu omillarning o‘sma prognozi va tashxislashdagi xos jihatlarini aniqlashga qaratilgan.

Dissertatsiya ishining Davlat dasturiga yoki ilmiy-tadqiqot ishlar rejasi bilan bog‘liqligi

Dissertatsiya mavzusi TDTU (Toshkent davlat tibbiyot universiteti) ilmiy-tadqiqot ishlar rejasiga kiritilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi

Oxirgi 10 yillik xalqaro ma’lumotlar bo‘yicha, oshqozon osti bezi adenokartsinomasining molekulyar va genetik mezonlari (masalan, KRAS, CDKN2A, TP53, SMAD4 mutatsiyalari) xorijlik olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Biroq, ushbu molekulyar o‘zgarishlarning bevosita bemorning yoshi bilan korrelyatsiyasi va immunogistokimyoviy markerlar fenotipining turli yosh guruhlarida (ayniqsa 45-59 yoshli mehnatga layoqatli guruh bilan keksa yoshlilar o‘rtasida) namoyon bo‘lish xususiyatlari yaxlit tizimga solinmagan. Mamlakatimizda onkomorfologiya sohasida juda ko‘plab ilmiy amaliy tadqiqot ishlari olib borilgan (akademik M.S. Abdullaxo'jayeva maktabi, R.I. Israilov va boshqalar), biroq aynan oshqozon osti bezi saratonining yoshga doir immunogistokimyoviy xususiyatlari va fenotipik klassifikatsiyasi bo‘yicha mukammal morfometrik mezonlar ishlab chiqilmagan. Bu esa ushbu tadqiqotning zarurligini belgilaydi.

Tadqiqot maqsadi:

Oshqozon osti bezi saratonining patomorfologik va immunogistokimyoviy xususiyatlarining yoshga va jinsga bog‘liq ravishda namoyon bo‘lish qonuniyatlarini o‘rganish, o‘smaning gistologik tiplari va differentsiallanish darajasini zamonaviy markerlar yordamida baholash hamda erta tashxislash va prognozlash mezonlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

Oshqozon osti bezi saratoni bilan og‘rigan turli yoshdagi bemorlarning operatsion va biopsiya materiallarini patomorfologik (gistologik) xususiyatlarini qiyosiy o'rganish;

Turli yosh guruhlarida oshqozon osti bezi xavfli o‘smalarining immunogistokimyoviy (Ki-67, p53, CEA, CK7) markerlari ekspressiyasini baholash va ularning o‘sma differentsiallanish darajasi bilan bog‘liqligini aniqlash;

Oshqozon osti bezi saratoni asoratlaridan vafot etganlar autopsiya materialida bezda va atrof a’zolarda yuzaga kelgan patomorfologik hamda immunogistokimyoviy o‘zgarishlarni solishtirma tahlil qilish;

Olingan morfometrik, gistokimyoviy va immunogistokimyoviy ko‘rsatkichlarni multivariantli statistik tahlil qilish orqali yoshga bog‘liq bo‘lgan prognostik mezonlarni ishlab chiqish.

Ilmiy yangiligi.

Ilk bor oshqozon osti bezi saratonining yosh va jins omiliga bog‘liq patomorfologik va molekulyar-fenotipik (immunogistokimyoviy) xususiyatlari yaxlit holda baholanadi. Turli yosh guruhlarida o‘sma angiogenezi va hujayra proliferatsiyasi faolligining o‘ziga xosligi ochib beriladi. Bu ko‘rsatkichlar asosida kasallikning kechishi va og‘ir asoratlarni oldindan prognoz qilish tizimi yaratiladi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalari asosida oshqozon osti bezi saratonini erta bosqichlarda aniqlash va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda to‘g‘ri davolash taktikasini tanlash uchun morfologik va immunogistokimyoviy mezonlar majmuasi sog‘liqni saqlash amaliyotiga va patologoanatomik tashxislash jarayoniga tadbiq etiladi.

Material va usullar.

Material sifatida Toshkent davlat tibbiyot universiteti va Patologik anatomiya markazining 2016-2026 yillar davomidagi oshqozon osti bezi saratoni tashxisi qo‘yilgan biopsiya, operatsion va autopsiya materiallari (taxminan 120-150 holat) olinadi. Usullar: umumiy morfologik (Gematoksilin-eozin), gistokimyoviy (Van-Gizon, Masson trixromi) va zamonaviy immunogistokimyoviy (IGK) tekshirish usullari qo‘llaniladi.

Tadqiqotni bajarish etaplari:

Sentyabr 2026 – Oktyabr 2026: Dissertatsiya mavzusini aniqlashtirish, rasmiylashtirish, annotatsiya va patent qidiruvi hujjatlarini tuzish.

Noyabr 2026 – Dekabrь 2027: Ilmiy adabiyotlar bilan tanishish, mavzu bo‘yicha obzor (sharh) bobini yozish, arxiv va joriy materiallarni to‘plash.

Yanvar 2027 – Dekabr 2027: To‘plangan biopsiya va autopsiya materiallariga laboratoriya ishlov berish, gistologik bloklar va kesimlar tayyorlash, dastlabki mikroskopik tavsiflarni rasmiylashtirish.

Yanvar 2028 – Iyun 2028: Immunogistokimyoviy va morfometrik tekshiruvlarni o‘tkazish, olingan natijalarni statistik tahlil qilish, ilmiy maqolalar chop etish, dissertatsiya boblarini yakunlash va dastlabki himoya bosqichlaridan o‘tish.